



OILALARDAGI ZO`RAVONLIKLARNING OLDINI OLISH YO`LLARI

Matniyazova G.P.

Qoraqalpog'iston Respublikasi,
Qonliko'l tumani «Inson» ijtimoiy xizmatlar
markazi (psixologlar guruhi) bosh mutaxassisi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.14242006>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 9-noyabr 2024 yil
Ma'qullandi: 19-noyabr 2024 yil
Nashr qilindi: 29-noyabr 2024 yil

KEY WORDS

zo`ravonlik, destruktiv xulq-atvor,
jabrlanuvchi, psixologik
zo`ravonlik, iqtisodiy zo`ravonlik,
jinsiy zo`ravonlik, jismoniy
zo`ravonlik.

Bugungi zamonaviy jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik va siyosiy o`zgarishlar ta`sirida insonlarning emotsional siqilishi, ularda tajovuzkorlik va hayotidan norozilik darajalari ortgan, bularning barchasi oilaviy munosabatlarning destruktiv tus olishiga sabab bo`lmoqda, ayniqsa bunday munosabatlarda ayollar va bolalar jabr chekmoqdalar. Bu degani jamiyatda zo`ravonlik turlarining sodir etilayotganligidan dalolat.

Butun dunyodagi kabi bizning mamlakatimizda ham bu yomon illat yo`q deb ayta olmaymiz. Zo`ravonlikning oldini olish borasida mamlakatimizda ham bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda, jumladan, 2019 yil 2-sentyabrda O`zbekiston Respublikasi Prezidentining «Xotin-qizlarni tazyiq va zo`ravonlikdan himoya qilish to`g`risida» 561-son Qonuni imzolangan va bunga keyingi yillarda o`zgartirish va qo`shimchalar kiritilgan. Ushbu Qonunning maqsadi xotin-qizlarni tazyiq va zo`ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Statistik tahlillarga ko`ra 2024 yilning birinchi choragida O`zbekistonda 318 jinsiy zo`ravonlik, 4,5 ming oiladagi zo`ravonlik holatlari aniqlanganligi aytiladi.

Demak, shuncha amalga oshirilayotgan ishlarga qaramasdan zo`ravonlik turlarining uchrayotgani ayanchi holat. Shunday ekan, bu, jamiyatimizda zo`ravonlikning oldini olish ishlarini yanada kuchaytirishni taqozo etadi.

Tadqiqotchilar oiladagi zo`ravonlikning bir nechta turini ajratib ko`rsatadi: psixologik, iqtisodiy, jismoniy va jinsiy. Psixologik zo`ravonlik o`z ichiga verbal haqorat, shantaj, o`ziga, jabrlanuvchiga yoki boshqa odamlarga zo`ravonlik tahdidlari, uy hayvonlarini o`ldiraman yoki boshqa shaxsiy buyumlarni yo`q qilaman deb qo`rqitish, ta`qib qilish, jabrlanuvchining faoliyatini tinmay nazorat qilish, jabrlanuvchining muloqat doirasini nazorat qilish, jabrlanuvchining turli resurslardan foydalanishini cheklab qo`yish (tibbiy yordam, do`stlari bilan muloqat qilish, bilim olish, ishlash va h.), jabrlanuvchini kamsituvchi harakatlar qilishga majburlash, jabrlanuvchining kun tartibini nazorat qilish [1].

Oilalardagi zo`ravonlikning ijtimoiy-psixologik profilaktikasi birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi bo`lishi mumkin. Oilalardagi zo`ravonlikning eng ommaviy turi – bu birlamchi

ABSTRACT

Bu tezisda oilalardagi zo`ravonliklar, ularning turlari, ularning oldini olishda olib boriladigan ishlarning mazmuni, bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan ishlar batafsil yoritib berilgan.

profilaktika. Bu barcha obod oilalar, yoshlar va bolalarga o'tkaziladi. Uning maqsadi – oilalarda faol, moslashuvchan, o'z huquqlarini biluvchi, o'z qiziqish va ehtiyojlarini qondirib biladigan, uyg'un oilaviy munosabatlarga degan psixologik ustanovkalari shakllangan yuqori darajada faol turmush tarzini shakllantirishdan iborat. Ijtimoiy-psixologik ishlar bu erda axborotli xarakterga ega bo'lishi kerak, chunki bu erda ish har bir odamda o'z ustidan kimningdir bosim o'tkazib boshqarishidan butunlay voz kechishiga yunaltirilgan.

Birlamchi ijtimoiy-psixologik profilaktikaning mazmuni quyidagicha:

- aholiga oilalardagi zo'ravonliklar haqida keng turda ma'lumotlar berish- ta'lim-tarbiya tashkilotlarida, korxonalarda, firmalarda va boshqa tashkilotlarda.

- zo'ravonlikga olib keluvchi har xil hayotiy vaziyatlarda xulq-atvoriga tegishli huquqiy normalarni o'rganish.

- oilalardagi vazifalarni taqsimlash yo'llari, to'g'ri hayot yo'lini tanlash, tanishish, munosabat o'rnatish tajribasi singari turmush namunalarini namoyish qilish (OAV, radio, televidenie orqali).

- oilalarning ijodiy, intellektual, jamoatchilik ishlarida, sportda qo'llab-quvvatlash, oilaviy dam olishlarni tashkillashtirib turishni targ'ib qilish.

Birlamchi ijtimoiy-psixologik profilaktikaning metodlari quyidagilardan iborat: ma'lumot berish, misollar keltirish, e'tikod, jamiyat, mikromuhit va oilalarda ishlash.

Ikkilamchi ijtimoiy-psixologik profilaktika ishlari asosan «xavf guruhi» ga kirgan oilalar, yoshlar va bolalar bilan ishlashga yo'naltirilgan. Buning maqsadi moslashuvchanlikda muammosi bor, funktsiyasi buzilgan noto'liq oilalar, xulq-atvorlarida o'zgarishlar kuzatilgan etim bolalar, mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilari bo'lgan yoshlar va bolalarni yaxshi tomonga o'zgartirishdan iborat.

Ikkilamchi ijtimoiy-psixologik profilaktikada bunday xulq-atvoriga ega bolalarga quyidagi yo'nalishlarda yaqindan yordam beradi:

- zo'ravonlikdan o'zini-o'zi himoya qilish tajribalari va bilimlarini shakllantirish;

- zo'ravonlikdan jabr ko'rganlarga yordam qo'lini cho'zadigan tashkilotlar va ularga qanday murojaat qilish yo'llari haqida ma'lumot berish;

- bolalar va yoshlarning o'ziga, o'z mikromuhitiga, o'z hayotiga bo'lgan munosabatlarini korrektsiya qilish.

Ikkilamchi ijtimoiy-psixologik profilaktikaning asosiy metodlari quyidagilar: ma'lumot berish, tushuntirish, hikoya, vaziyatlarni tahlil qilish, e'tiqod va b. Bu metodlar bunday ijtimoiy-psixologik profilaktikaning samaradorligini oshiradi, ya'ni har xil treninglar, mashg'ulotlarning korrektsiya bosqichlari, ota-onalar bilan suhbatlar, yoshlar va bolalar klublari, oilaviy mehmondorchiliklar yaxshi natija beradi.

Ikkilamchi profilaktika chog'ida mahalla xodimlari bilan birga mutaxassislarining birga ishlashi muhim, ya'ni shifokorlar, psixologlar, yuristlar va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari yordami va tajribalari kerak bo'ladi.

Uchlamchi ijtimoiy-psixologik profilaktikaning faoliyati to'g'ridan-to'g'ri zo'ravonlikdan jabr ko'rgan oilalarga, oilalarning ayrim a'zolariga yo'naltirilgan bo'ladi. Bunda jabrlanganlar bilan individual tarzda shug'ullanish taqozo etiladi. Bunday vaziyatda eng muhimi – mutaxassislar guruhining oilaviy zo'ravonlikdan jabrlanuvchilarga tezkor yordam ko'rsatish va ularni alohida ajratib olish. Bu maksadni amalga oshirish uchun rehabilitatsiya markazlari tashkillashtirilishi maqsadga muvofiq.

Uchlamchi ijtimoiy-psixologik profilaktikaning asosiy maqsadi ijtimoiy-psixologik rehabilitatsiya va ijtimoiy-psixologik qo'llab-quvvatlashdan iborat.

Bu profilaktika ishlaridan tashqari ko'pincha tibbiy tomondan, ya'ni, zo'ravonlik qurbonlarini davolash, ularda yuqumli kasalliklar aniqlanganda ularning oldini olish choralarini ko'rishni taqozo etadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, zo'ravonlikning profilaktika ishlari o'z printsiplari, metodlari va tizimli tadbirlarni talab qiladi. Agarda biz oilalardagi zo'ravonliklar haqida

gapirar ekanmiz, unda birlamchi – ma'lumot berish, ikkilamchi- «xavf guruhi» ga kirgan oilalar bilan ishlash, uchlamchi – zo`ravonlik qurbonlari bilan to`g`ridan-to`g`ri ishlashni ko`z oldimizga keltiramiz. Bu erda profilaktikaning yakuniy maqsadi birinchi navbatda oilalardagi zo`ravonliklardan jabr ko`rganlarni normal hayotga qaytarishdan iborat. Albatta, bu maqsadga bosqichma-bosqich, ko`pgina vazifalarni amalga oshirgan holda, barcha soha vakillari birgalikda harakat qilgan holda erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. Карабанова О.А. Психология семейных отношений и основы консультирования / О.А. Карабанова. – М.: Гардарики, 2005. – 320с.
2. Ковкова Т.Г. Технологии социальной работы с женщинами, подвергшимися насилию в семье / Т.Г. Ковкова, И.А. Гизатова // Педагогическое мастерство: материалы II междунар. науч. конф. (г. Москва, декабрь 2012 г.). - М.:Буки-Веди, 2012.

